Ключевые слова: конкурентоспособность, сельское хозяйство, качество продукции, цена, маркетинг, инновация, логистика, экспорт, устойчивость, стратегия.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday tarmoq, jumladan, qishloq xo'jaligining samarali rivojlanishi bevosita ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Bugungi globallashuv, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va ekologik barqarorlikka bo'lgan talab ortib borayotgan bir paytda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini chuqur tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda. Chunki raqobatbardosh mahsulotlar nafaqat iste'molchilar ehtiyojini to'laqonli qondiradi, balki ishlab chiqaruvchi xo'jalik subyektlarining iqtisodiy barqarorligini, eksport salohiyatini va umumiy tarmoq rentabelligini ta'minlaydi.



Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi va iqtisodiy globallashuv sharoitida raqobatbardoshlik nazariyasi iqtisodiyotning eng muhim kategoriyalaridan biri sifatida shakllandi. Bu tushunchaning ilmiy-evolyutsion taraqqiyoti turli bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, har bir tarixiy davrda raqobatbardoshlikka yondashuvlar mazmunan farqlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Klassik iqtisodchilar (A. Smit, D. Rikardo, J.S. Mill) raqobatni iqtisodiy resurslar taqsimotining tabiiy mexanizmi sifatida qarashgan. Ularning nazariyasida raqobatbardoshlik mahsulot tannarxi va narxi o'rtasidagi farq, ya'ni mehnat qiymati nazariyasi orqali izohlangan. A. Smit bozorni "ko'rinmas qo'l" orqali muvozanatlashtiruvchi mexanizm deb ta'riflagan bo'lsa, Rikardo nisbiy ustunlik nazariyasi orqali mamlakatlar o'rtasidagi savdoda raqobat afzalliklarini izohladi[1].

XX asr boshida neoklassik maktab vakillari (A. Marshal, V. Pareto) raqobatni mikroiqtisodiy darajada mahsulot narxi va iste'molchi foydasiga asoslab tushuntirishdi. Biroq E. Chamberlin va J. Robinson tomonidan ishlab chiqilgan monopolistik raqobat nazariyasida raqobatbardoshlik mahsulotning farqlanuvchanlik darajasi, reklama, brend va servis sifati orqali tushuntiriladi[2]. Bu yondashuv qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun ayniqsa dolzarb, chunki ushbu sohada mahsulotlar ko'pincha bir-biriga o'xshash, lekin differensial afzalliklar orqali raqobat shakllanadi.

Bu davrda raqobatbardoshlik tushunchasi kompaniya darajasida strategik rejalashtirish doirasida o'rganila boshlandi. I. Ansof, K. Andryu kabi olimlar kompaniya tashqi va ichki imkoniyatlarini tahlil qilish orqali raqobatbardoshlikni aniqlashga harakat qilishdi[3]. Bu bosqichda resursga asoslangan yondashuv (RBV – Resource-Based View) vujudga kelib, raqobatbardoshlik korxonaning noyob, taqlid qilib bo'lmaydigan resurs va qobiliyatlariga asoslangan deb hisoblandi.

M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan "Milliy raqobat ustunligi" nazariyasi raqobatbardoshlikka tizimli yondashuvni olib kirdi. U o'zining mashhur "to'rt omilli romb modeli"da talab sharoitlari, o'zaro bog'liq tarmoqlar, firma strategiyasi, tuzilmasi va raqobat, ishlab chiqarish omillarining sifati kabi asosiy omillarni ajratib ko'rsatadi. Porterga ko'ra, davlat va tasodifiy omillar (chance) ham modelga bilvosita ta'sir ko'rsatadi[4]. Bu nazariya milliy darajada raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim strategik tahlil vositasi hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardoshlik innovatsiyalar, texnologik yangilanish, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish va institutsional muhit bilan bevosita bog'liq holda tahlil qilinmoqda. Ayniqsa, J. Shumpeter tomonidan ilgari surilgan "ijodiy buzilish" (creative destruction) konsepsiyasi doirasida korxona raqobatbardosh bo'lishi uchun yangilik joriy etishi zarur, deb hisoblanadi[5]. Hozirda esa raqobatbardoshlik indeksleri nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki ijtimoiy barqarorlik, ta'lim sifati, innovatsion salohiyat va institutlar samaradorligini ham baholaydi.

Raqobatbardoshlik nazariyasi bosqichma-bosqich takomillashgan bo'lib, u ilk bosqichda faqat narx va mehnat unumdorligi bilan izohlangan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda ekologik, institutsional, innovatsion va barqarorlik omillari bilan boyitilgan. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun bu yondashuvlar kompleks va ko'p mezonli baholash tizimini talab qiladi. Raqobatbardoshlik darajasini aniqlovchi asosiy mezonlar sifat, narx, innovatsionlik, marketing va logistika tizimining samaradorligi kabi omillar bilan belgilanadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun bu omillar kompleks tarzda tahlil qilinishi kerak[6]. Shuning uchun raqobatbardoshlikni har doim dinamik va tizimli holatda tahlil qilish muhimdir.

Ilmiy adabiyotlarda "raqobatbardoshlik" tushunchasi turli yondashuvlar asosida izohlanadi. Mikroiqtisodiy nuqtai nazardan bu tushuncha mahsulotning narx, sifat, xizmat darajasi kabi ko'rsatkichlari orqali iste'molchiga raqobatchilarga nisbatan afzallik taqdim etish qobiliyatini bildiradi. Makroiqtisodiy yondashuvda esa bu tushuncha mamlakatning yoki tarmoqning xalqaro miqyosdagi ustunligini belgilovchi omillar tizimi sifatida qaraladi. Jumladan, M. Porterning milliy raqobat ustunligi nazariyasida raqobatbardoshlik "to'rt omilli romb modeli" orqali ifodalanadi, bunda talab sharoitlari, tegishli tarmoqlarning mavjudligi, strategiya va resurslar muvofiqligi muhim rol o'ynaydi[4].

Raqobatbardoshlik tushunchasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu tushuncha milliy, tarmoqlararo, korxona va mahsulot darajasida turlicha yondashuvlar asosida izohlanadi. Xususan, mikrodoirada – ya'ni firma yoki mahsulot miqyosida raqobatbardoshlik korxonaning bozordagi ustunligi, ishlab chiqarish samaradorligi, mijoz ehtiyojini qondirish darajasi va innovatsion salohiyati bilan bog'liq tarzda talqin etiladi. Turli olimlar va xalqaro tashkilotlar bu tushunchaga o'zining nazariy yondashuvlari asosida ta'riflar bergan.

Quyidagi jadvalda raqobatbardoshlik mohiyatini ifodalovchi ayrim yirik xorijiy va MDH olimlari, hamda xalqaro institutlar tomonidan berilgan ta'riflar jamlangan. Ushbu ta'riflar raqobatbardoshlikning ko'p qirrali va kompleks xarakterga ega ekanini ko'rsatadi.



1-jadval. Raqobatbardoshlik tushunchasiga oid ilmiy ta'riflarning tahlili

№	Tadqiqotchi nomi	Berilgan ta'rif
1.	Michael E. Porter	Milliy raqobatbardoshlik – bu bir mamlakatning sanoat tarmoqlari xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli raqobat qila olishiga ta'sir etuvchi omillar tizimidir[4].
2.	V.L. Makarov	Raqobatbardoshlik – bu mahsulotning yoki iqtisodiyot tarmog'ining tashqi va ichki bozorlarda uzoq muddat davomida muvaffaqiyatli faoliyat yurita olish imkoniyatidir[8].
3.	Peter Druker	Korxona raqobatbardoshligi – bu mijoz ehtiyojiga mos mahsulot yaratish va yetkazib berishdagi samaradorlik darajasidir[9].
4.	Robert M. Grant	Mikrodoirada raqobatbardoshlik – bu korxonaning bozorda muvaffaqiyatli pozitsiyalanishi va foydali ishlashiga asos bo'ladigan ichki imkoniyatlardir[10].
5.	V.I. Gerchikova	Raqobatbardoshlik – bu mahsulot yoki xizmatning iste'molchi talabini qondirishdagi afzallik darajasidir[11].
6.	A.A. Arkhipov	Korxona yoki mamlakat raqobatbardoshligi – bu narx, sifat va xizmat ko'rsatish tizimi orqali bozordagi ustunlikka erishish darajasidir[12].
7.	World Economic Forum	Raqobatbardoshlik – bu mamlakatning farovonlik darajasini oshira oladigan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va institutsional omillar tizimidir.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini baholashda mezonlar majmuasi har tomonlama va tizimli yondashuvni talab qiladi. Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish esa nafaqat xo'jalik subyektlari, balki butun tarmoqning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini aniqlashda uning kompleks ko'p omilli tabiati inobatga olinishi lozim. Chunki bu mahsulotlar o'zining biologik-xomashyoviy xususiyatlari, mavsumiyligi, bozordagi tebranishlarga nisbatan sezuvchanligi bilan ajralib turadi. Shu bois ularning raqobatbardoshligini aniqlashda faqat mahsulot sifati yoki narxi bilan cheklanmasdan, balki ekologik sertifikatlash, logistika zanjiri, brend qadriyati, innovatsion texnologiyalar darajasi va marketing strategiyalari singari mezonlar ham muhim ahamiyatga ega.


TADQIQOT NATIJALARI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil metodi, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Raqobatbardoshlikni baholashda zamonaviy mezonlar tizimidan foydalanish dolzarbdir. Xalqaro amaliyotda bu baholash, odatda, mahsulotning iste'molchiga qanchalik qadriyat taqdim etishi, yetkazib berish samaradorligi, ekologik va ijtimoiy barqarorlik ko'rsatkichlari asosida amalga oshiriladi. Ayniqsa, global oziq-ovqat tizimida barqaror iste'mol madaniyatining shakllanishi bilan ekologik toza va innovatsion mahsulotlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligi faqat iqtisodiy ko'rsatkich emas, balki institutsional, ekologik va ijtimoiy jihatlarni qamrab oluvchi ko'p qirrali kategoriyaga aylanmoqda.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini chuqur o'rganish va baholash nafaqat iqtisodiy nazariyani boyitadi, balki amaliyotda tarmoq subyektlarining samaradorligini oshirish, milliy eksport salohiyatini kuchaytirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzuni ilmiy jihatdan asoslab o'rganish, ayniqsa, marketing strategiyalarini differensial yondashuvlar asosida takomillashtirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish va bozor infratuzilmasini optimallashtirish bilan bevosita bog'liqdir.



1-rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini baholash mezonlari¹

Ushbu 1-rasmda qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini ta'minlovchi omillar tizimli va ko'p bosqichli yondashuv asosida ifodalangan. Markaziy tushuncha sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligi keltirilgan bo'lib, u mahsulotning ichki va tashqi bozorlardagi afzallik darajasini, iste'molchi ehtiyojini to'liq va samarali qondirish imkoniyatini anglatadi. Chizmada bu tushunchaga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi birlamchi omillar va ularning tarkibiy (ikkinchi darajali) ko'rsatkichlari ko'rsatilgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini baholashda mahsulot sifati eng muhim omillardan biridir. Chunki iste'molchi tanlovi ko'p hollarda aynan mahsulotning sifatiga bog'liq bo'ladi. Mahsulot sifati deganda mahsulotning iste'molchi ehtiyojini qanday darajada qondira olishi tushuniladi. Bu ko'rsatkichlar esa mahsulotning tashqi ko'rinishi, oziqaviy qiymati, ekologik tozaligi, saqlanish muddati va tashishga chidamliligi kabi omillar orqali baholanadi.

Mahsulotning biologik va oziqaviy qiymati uning tarkibida mavjud bo'lgan oqsil, yog', uglevod, vitamin va mikroelementlar miqdori bilan belgilanadi. Bu ayniqsa sog'lom turmush tarzini tanlagan iste'molchilar uchun muhim hisoblanadi. Tashqi ko'rinish mahsulotning shakli, rangi, hajmi va silliqligiga qarab aniqlanadi. Bu ayniqsa eksportga mo'ljallangan mahsulotlar uchun muhimdir. Ekologik tozaligi esa mahsulotda pestitsidlar, nitratlar va og'ir metallarning ruxsat etilgan darajadan oshmasligi orqali baholanadi.

Mahsulotning saqlanish muddati va tashishdagi chidamliligi bozor geografiyasi keng bo'lgan ishlab chiqaruvchilar uchun muhim bo'lib, mahsulot uzoq masofalarga yetkazilayotganda buzilmasligi kerak. Standartlarga va sertifikatsiyaga muvofiqlik esa mahsulotning milliy yoki xalqaro sifat tizimlariga mosligini bildiradi. Bu iste'molchining mahsulotga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Sifatni baholash laboratoriya tahlillari, organoleptik sinovlar, ekspert baholari va mahsulot sertifikatlari orqali amalga oshiriladi. Laboratoriya tahlillari mahsulot tarkibini aniq ko'rsatib beruvchi usul bo'lib, unda biologik va kimyoviy parametrlar aniqlanadi. Organoleptik baholash esa mahsulotning ta'mi, hidi va ko'rinishi asosida ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi. Sertifikatlash esa mahsulotning sifatini rasmiy hujjat bilan tasdiqlovchi muhim vositadir.

Mahsulot sifati raqobatbardoshlik darajasini oshirishda bevosita rol o'ynaydi. Sifatli mahsulotlar yuqori narxda sotilishi mumkin. Ular bozorda tezroq sotiladi va xaridorlarda ishonch uyg'otadi. Bundan tashqari, bunday mahsulotlar eksport salohiyatiga ham ega bo'lib, brend qiymatini shakllantirishga yordam beradi.

Shuning uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, sifat nazorat tizimini kuchaytirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va xalqaro sertifikatlariga ega bo'lish orqali mahsulot raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirish mumkin bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini baholashda narx omili muhim iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Chunki iste'molchilar tanlov qilayotganda mahsulot sifati bilan bir qatorda uning narxiga ham katta e'tibor qaratadilar. Narx mahsulotning bozor talabiga mosligi, xaridorlar uchun qulayligi va raqobatchilar

¹ Muallif tomonidan shakllantirildi.



mahsulotlariga nisbatan afzallik darajasini aniqlashda asosiy mezonlardan biridir. S.T.To'laganov fikriga ko'ra, "Mahsulot narxi raqobatbardoshlikning muhim elementi bo'lib, uni belgilashda ishlab chiqarish tannarxi, bozor talab va taklifi, xaridor ehtiyoji va segmentga moslashtirish strategiyasi inobatga olinishi kerak." [13].

Narxning raqobatbardoshlikka ta'siri bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Bevosita ta'sir shundaki, mahsulot arzonroq bo'lsa, u bozorda ko'proq xaridor topadi, ayniqsa o'rtacha yoki past daromadli aholi qatlamlari uchun. Bilvosita ta'sir esa mahsulot narxining sifati bilan uyg'unligida namoyon bo'ladi, ya'ni "narx-sifat" nisbatining optimal bo'lishi xaridor qaroriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Faqat past narx emas, balki arzon narxda yuqori sifat taklif etish mahsulotga bo'lgan talabni oshiradi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi bir nechta omillar asosida shakllanadi. Ular orasida ishlab chiqarish tannarxi, xomashyo va resurslar narxi, soliqlik yuki, logistika xarajatlari, mavsumiy omillar, davlat subsidiyalari, import-eksport cheklovlari va bozor sharoitlari kiradi. Mahsulot narxining doimiy o'zgarib turishi ushbu mahsulotni raqobatbardoshligi nuqtayi nazaridan doimiy monitoring qilish zarurligini anglatadi.

Narx strategiyasini to'g'ri tanlash korxonaning bozordagi o'rnini mustahkamlashi mumkin. Masalan, past narx strategiyasi (cost leadership) yordamida ommaviy iste'molchilarga mo'ljallangan mahsulotlar bilan bozorga kirish mumkin. Ayni paytda differensial narx strategiyasi sifatli mahsulotlar uchun yuqoriroq narx belgilash va yuqori daromadli segmentni nishonga olish imkonini beradi.

Narx omili eksport bozorlarida ham muhim ahamiyatga ega. Xalqaro bozorlarda raqobatchilar narxiga nisbatan qulay narx belgilash, bojxona xarajatlarini inobatga olish va valyuta kurslaridagi o'zgarishlarni hisobga olish orqali eksport raqobatbardoshligini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Shunday qilib, narx omili qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy indikatorlardan biri bo'lib, u mahsulot sotilish tezligi, xaridorlar soni va daromad hajmiga bevosita ta'sir qiladi. Narxni belgilashda bozor tahlili, raqobatchilar narxi, xaridor ehtiyoji va mahsulot sifati bilan uyg'unlikni ta'minlash orqali raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirish mumkin bo'ladi.

Marketing strategiyasi raqobatbardoshlikni shakllantirishda markaziy boshqaruv vositasi bo'lib, mahsulotni iste'molchiga qanday yetkazish, qaysi segmentga mo'ljallash va qanday brend yaratish strategiyalarini o'z ichiga oladi. Chizmada target marketing va brend strategiyasi ushbu omilning asosiy elementlari sifatida ko'rsatilgan. Target marketing maqsadli auditoriyani aniq tanlash orqali reklama va savdo harakatlarining samaradorligini oshiradi. Brend strategiyasi esa mahsulotga nisbatan iste'molchi ishonchini mustahkamlash va sodiqlikni oshirishga qaratilgan.

Bozor ulushi mahsulotning bozor segmentlaridagi pozitsiyasini ifodalaydi. Bu omil tarkibida segment ulushi va eksport salohiyati kabi ko'rsatkichlar keltirilgan. Segment ulushi muayyan bozor bo'lagidagi ulushni bildirsa, eksport salohiyati mahsulotning xalqaro bozorda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini anglatadi. Eksport salohiyati yuqori bo'lgan mahsulotlar davlat darajasida ham raqobatbardoshlik indikatoriga aylanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini baholashda innovatsionlik darajasi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy bozor sharoitida oddiy mahsulotlar bilan raqobatlashish tobora qiyinlashib borayotgan bir paytda, innovatsion mahsulotlar yoki texnologiyalar asosida yaratilgan mahsulotlar bozor talablariga tez moslasha oladi, xaridorlarga yuqori qiymat taklif qiladi va ishlab chiqaruvchiga strategik ustunlik yaratadi.

Innovatsionlik darajasi qishloq xo'jaligida quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: yangi nav va urug'lar yaratish, hosildorlikni oshiruvchi agrotexnikalar joriy etish, ekologik toza mahsulotlar yetishtirish, raqamli texnologiyalar asosida monitoring va boshqaruvni amalga oshirish, agrotexnik vositalarni avtomatlashtirish va aqlli qishloq xo'jaligi tizimlaridan foydalanish. Ushbu innovatsiyalar mahsulotning sifati, barqarorligi, ishlab chiqarish samaradorligi va bozor talablariga mosligi jihatidan sezilarli ustunlik beradi.

Innovatsionlik darajasi raqobatbardoshlikka bir necha yo'nalishda bevosita ta'sir qiladi. Birinchidan, u mahsulot sifatini oshiradi, chunki yangi texnologiyalar asosida yetishtirilgan mahsulotlar ko'proq oziqaviy qiymatga, ekologik xavfsizlikka va tashqi ko'rinishdagi jozibadorlikka ega bo'ladi. Ikkinchidan, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, bu esa mahsulot narxini raqobatchilarga nisbatan qulayroq belgilash imkonini yaratadi. Uchinchidan, innovatsiyalar mahsulotni bozorda farqlashga xizmat qiladi, bu esa marketing va brendlash strategiyalarini kuchaytiradi. Innovatsionlik darajasini baholashda bir nechta mezonlar asos qilib olinadi. Ular jumlasiga mahsulotning texnologik yangiligi, ilmiy-texnik yangilik darajasi, ishlab chiqarishga joriy etilgan innovatsion elementlar soni va sifati, patent yoki litsenziya mavjudligi, mahsulotning ekologik tozaligi, va raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish kiradi. Yuqori innovatsionlik darajasiga ega mahsulotlar bozorda tez tan olinadi, eksport imkoniyatlari ortadi va davlat tomonidan ko'proq qo'llab-quvvatlanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini baholashda logistika tizimi alohida ahamiyatga ega bo'lgan mezonlardan biridir. Chunki bu mahsulotlarning o'ziga xos xususiyati – tez buziluvchanligi, mavsumiyliги va omborlash, tashish, saqlash sharoitlariga bo'lgan yuqori talablar bilan bog'liqdir. Mahsulot ishlab chiqarishdan tortib, uni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan butun zanjirda logistika samaradorligi raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Logistika tizimi – bu mahsulot oqimini rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat qilish va optimallashtirishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun bu tizim



hosil yig'im-terimidan boshlab, dastlabki qayta ishlash, saralash, sovitish, qadoqlash, saqlash va yakuniy iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi.

Logistika tizimi quyidagi jihatlar orqali raqobatbardoshlikka ta'sir qiladi. Birinchidan, u mahsulotni o'z vaqtida va sifatini saqlagan holda bozorga yetkazib berishni ta'minlaydi. Ikkinchidan, transport va saqlash xarajatlarini optimallashtirish orqali mahsulot tannarxining pasayishiga xizmat qiladi. Uchinchidan, bozordagi talabga tez va mos ravishda javob berish imkonini yaratadi. Bu esa xaridorlar ehtiyojini qondirish va bozordagi mavqeini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Logistika infratuzilmasining rivojlanmaganligi esa aksincha, mahsulot sifati pasayishiga, saqlash paytida yo'qotishlarga, kechikishlarga va narxning oshib ketishiga olib keladi. Bu holat mahsulotning raqobatbardoshligini keskin pasaytiradi. Shu boisdan, zamonaviy agro-logistika markazlari, sovitkichli transport vositalari, avtomatlashtirilgan ombor tizimlari va raqamli monitoring vositalari joriy etilishi raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Logistika tizimining samaradorligi mahsulot yetkazib berish tezligi, transport xarajatlari, yo'qotish darajasi, saqlash sifati, mahsulot aylanmasi tezligi kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Yuqori logistika ko'rsatkichlariga ega bo'lgan korxonalar mahsulotni bozorda tez va ishonchli yetkazib berish orqali raqobatchilardan ustun bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu barcha omillar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, kompleks holatda mahsulotning umumiy raqobatbardoshlik darajasini belgilaydi. Chizma har bir omilni alohida o'rganish va tahlil qilishga asos bo'la oladi hamda marketing strategiyalarini ishlab chiqishda, rejalashtirish va qaror qabul qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Har bir omil – sifat, narx, logistika, innovatsiya, marketing va bozor ulushi – o'zaro bog'liq bo'lib, ularni birgalikda boshqarish orqali mahsulotning bozor talablariga javob berishini, sotuvlar hajmining oshishini va umumiy iqtisodiy samaradorlikning yuksalishini ta'minlash mumkin. Shu bois, raqobatbardoshlikni baholashda bu omillarni birgalikda va tizimli yondashuv asosida tahlil qilish muhim hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni taklif etish mumkin:

Kompleks baholash tizimini joriy etish – Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini aniqlash uchun sifat, narx, innovatsionlik, marketing va logistika ko'rsatkichlarini birlashtiruvchi integral indeks ishlab chiqish lozim.

Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish – Aqlli sug'orish tizimlari, raqamli agro-monitoring va biotexnologik innovatsiyalar asosida hosildorlik va mahsulot sifati oshirilishi kerak.

Marketing infratuzilmasini kuchaytirish – Mahalliy mahsulotlar uchun brend yaratish, eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish va "agro-marketing klasterlari"ni tashkil etish zarur.

Logistika tizimini modernizatsiya qilish – Sovitkichli transport, avtomatlashtirilgan ombor tizimlari va agro-logistika markazlari orqali mahsulot yetkazib berish zanjiri samaradorligini oshirish taklif etiladi.

Ekologik sertifikatlash tizimini kengaytirish – Organik va "eko" mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar uchun milliy va xalqaro sertifikatlash tizimlarini soddalashtirish lozim.

Davlat qo'llab-quvvatlovini kuchaytirish – Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha soliq imtiyozlari, eksport subsidiyalari va innovatsion grant dasturlari joriy etilishi zarur.

Ilmiy-amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish – Universitetlar va ilmiy markazlar ishtirokida "Agro-raqobat markazi"ni tashkil etish, ilmiy izlanishlar natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Smith, A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London: W. Strahan and T. Cadell. 1776. <http://gesd.free.fr/smith76bis.pdf>
2. Chamberlin, E. H. The Theory of Monopolistic Competition. Harvard University Press. 1933. <https://digamoo.free.fr/chamberlin1933.pdf>
3. Ansof, H. I. Corporate Strategy: An Analytic Approach to Business Policy for Growth and Expansion. McGraw-Hill. 1965. <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=2756126>
4. Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press. 1990. https://economie.ens.psl.eu/IMG/pdf/porter_1990_-_the_competitive_advantage_of_nations.pdf
5. Shumpeter, J. A. Capitalism, Socialism and Democracy. Harper & Brothers. 1942. <https://periferiaactiva.wordpress.com/wp-content/uploads/2015/08/joseph-schumpeter-capitalism-socialism-and-democracy-2006.pdf>
6. Qodirov Sh. Q. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda marketing miksi omillarining o'rni. – TDIU ilmiy axborotlari, №3. 2020.
7. Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. Free Press, New York. 1990. https://economie.ens.psl.eu/IMG/pdf/porter_1990_-_the_competitive_advantage_of_nations.pdf



8. Макаров В.Л. Конкурентоспособность и экономический рост. Москва: Экономика. 2003. <https://elib.psu.by/123456789/12896/1/%D0%A1%D0%BA%D1%83%D0%BC%D0%B0%D1%82%D0%BE%D0%B2%D0%B0%20%D0%9E.%D0%90..pdf>
9. Drucker, P. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. Harper & Row. 1973. <https://s3.amazonaws.com/arena-attachments/1267484/92b06bd934ddba113dbe9ce0d52199b5.pdf?1505687782>
10. Grant, R.M. Contemporary Strategy Analysis. Blackwell. 2002. https://edu.utu-ranch.uz/media/files/2024/12/02/Contemporary_Strategy_Analysis_Robert_M_Grant_Sanoat_iqtisodiyoti.pdf
11. Герчиков В.И. Менеджмент. Москва: ИНФРА-М. 2002 <http://www.amac.md/Biblioteca/data/26/03/Management/Gerchikova.pdf>
12. Архипов А.А. Конкурентоспособность предприятия в рыночной экономике. Санкт-Петербург: Питер. 2005.
13. To'laganov S. T. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari. – Iqtisodiyot va ta'lim jurnali, №2(89), 63–68. 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>